



## G'AZNACHILIK - DAVLAT BUDJETNING IJROSINI TA'MINLASH SHAKLI SIFATIDA

Temirov Boburbek Nuridin o'g'li<sup>1</sup>, Sholdarov D.A.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Toshkent moliya instituti

Byudjet hisobi va nazorati yo'nalishi 2-kurs magistranti.

<sup>2</sup>Ilmiy rahbar: Toshkent moliya instituti PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5651943>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- oktabr 2021

Ma'qullandi: 25- oktabr 2021

Chop etildi: 30- oktabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*g'azna, moliya, resurs, mexanizm, daromad, mablag', budjet, jamg'arma, soliq, tashkilot*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada g'aznachilik, g'aznachilik davlat budjetining ijrosini ta'minlash shakli ekanligi, hamda g'aznachilik huquq va majburiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Bugungi kunda g'aznachilik, xususan, g'aznachilik davlat budjeti ijrosini ta'minlash dolzarb va muhim mavzulardan biridir.

G'aznachilik - moliyaviy resurslarga bo'lgan yangicha va zamonaviy qarashdir, budjetning jami daromadlarini jamlash va taqsimlashdagi zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni qo'llashdir.

G'aznachilik - davlat budjetining ijrosini ta'minlashning bir ko'rinishidir. Unda maxsus idora davlat soliqlarini, yig'imini va ulardan foydalanishni ta'minlaydi, mablag'lar ustidan nazorat qiladi, hamda davlat tashqi va ichki qarzlarni boshqaradi va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari pul oqimlarini monitoringini olib boradi.

Davlat budjeti ijrosi G'aznachilik tizimida g'aznachilik budjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatini ijroga qabul qiladi hamda taqdim qilingan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun ularning nomidan va ularning buyrug'iga asosan vakolatni o'ziga oladi va budjet mablag'larini maqsadli ishlatilishini ta'minlash asosida to'lov qiladi.

G'aznachilik - Moliya vazirligining Davlat budjetining kassa ijrosi uchun, davlat daromadlari va xarajatlari hisobini olib borilishi uchun, davlat xarajatlari uchun moliyaviy resurslarni yetarli bo'lishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan organdir.

Mamlakatda G'aznachilik tizimi joriy etilishi vaqtinchalik harakatda bo'lmagan budjetning erkin mablag'larini, tajribali moliya bozorlarida joylashtirib, undan olingan daromadni budjet xarajatlarini to'liq moliyalashtirishga, budjet



taqchilligini kamaytirishga va davlat qarzlari to'loviga yo'naltiriladi.

Ushbu tizim davlatning moliyaviy aktivlarini va budjetdan tashqari jamg'armalarning erkin qoldiqlarini ishlatilishini va samarali himoyasini ta'minlaydi, g'aznachilik hisobraqamdagi erkin qoldiqlar hisobiga o'zi budjet xarajatlarini kreditlashi mumkin.

G'aznachilik tizimi joriy qilinishi davlat budjetini rejalashtirish, xarajatlarni amalga oshirish va ularni boshqarishga, moliyaviy hisobot, nazorat vazifalariga yondoshishi va bajarish ishlariga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

G'aznachilik tizimi joriy etilgandan keyin, mablag'larning shartli aylanish tezligi oldin amal qilgan tizimdan ko'ra jadallashdi, bunda buyurtmachi (budjet tashkiloti) nomidan g'aznachilik organlari to'lovlarni amalga oshiradi.

Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy tamoyillari – kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budjetining g'azna ijrosi qonun xujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

G'aznachilik organlari budjetdan mablag' oluvchilardan boshqarish funksiyalarini tortib olmaydi. G'aznachilik budjetning bajarilish jarayonini yaxshilash uchun ularni yanada ko'proq axborotlar bilan ta'minlaydi. Budjet tasnifi bo'yicha berilgan xarajatlar to'g'risidagi axborotlar yil davomida xarajatlar tendensiyasini va xarajatlarni amalga oshirish uchun qo'shimcha kerak bo'ladigan ehtiyojlarni aniq-lashga xizmat qiladi. G'aznachilikning faoliyat

ko'rsatishi naqd pullarni to'g'ri va samarali boshqarish yo'li bilan budjetga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Davlat budjetining G'aznachilik ijrosida budjet xarajatlarini nazoratga olishga alohida e'tibor beriladi. Bu borada Davlat ehtiyojlarining xaridi uchun qilinadigan to'lovlar alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat budjetining xarajatlari Yagona G'azna hisobvarag'i yoki g'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan muayyan muddatlarda va tegishli Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjet, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining qoldiqlari hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekistonda yaratilayotgan markazlashtirilgan g'aznachilik tizimi g'aznachilikning yagona hisobraqamida mablag'larni markazlashtirishni, so'rovnomalar va to'lov hujjatlari asosida to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, budjet ijrosining nazoratini va hisob-kitobini ko'zda tutadi.

Davlat budjetining g'azna ijrosi davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga kiritishdan, shuningdek, davlat budjetining xarajatlarini shu hisobraqamdan to'lashdan iborat.

Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy tamoyillari - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat.

Davlat budjetining g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar,



tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

G'aznachilik quyidagi erkinliklarga ega:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va tijorat banklarida G'aznachilikning bank hisob raqamlarini ochish va yopish;

Budjetdan mablag' oluvchilardan Davlat budjetini ijro etish jarayonidagi daromadlar va xarajatlarning qisqa muddatli prognozini tuzish uchun zarur bo'lgan hisobot ma'lumotlarini so'rab olish;

budjet tashkilotlaridan ular tomonidan G'aznachilikka ro'yxatdan o'tkazishga taqdim etiladigan shartnomalarning sifatini, maqsadga muvofiqligini va narx yechimlarini baholash uchun barcha zarur hujjatlarni belgilangan tartibda talab qilish;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyati topshirig'iga binoan Davlat budjeti bo'sh mablag'larini bank depozitlariga va boshqa aktivlarga vaqtinchalik joylashtirish, shuningdek budjet ssudalarini

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga o'tkazish;

budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalarida, qurilishlarning adresli va titul ro'yxatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar hajmidan oshib ketadigan hajmda budjet mablag'larini hisobiga haq to'lanishini nazarda tutuvchi shartnomalarini, shu qatorda budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning to'lov jadvalisiz, sifati, maqsadga muvofiqligi va narx yechimlari bo'yicha belgilangan

talablarga javob bermaydigan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish;

narxlarining asossiz va keskin ravishda oshirib yuborilishiga yo'l qo'yilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovni budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalarida nazarda tutilgan summa doirasida cheklash, shuningdek budjet tashkilotlari va buyurtmachilar shartnomalari predmetiga muvofiq bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgan hollarda to'lovni to'xtatib turish;

budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan hisobotlar taqdim etilmagan taqdirda ularning budjet mablag'larini hisobiga amalga oshiriladigan xarajatlari to'lovini moliya organlari topshirig'iga binoan to'xtatib qo'yish, bu to'g'rida tegishli vazirliklar, idoralar, budjetdan mablag' oluvchilarni xabardor qilish;

budjet tashkilotlarining G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalar bo'yicha moliyaviy majburiyatlarini hisobga qabul qilmaslik, qonun hujjatlariga muvofiq budjet tashkilotlari tomonidan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzilmasdan moliyaviy majburiyatlar qabul qilinishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno;

korxonalar va tashkilotlardan bajarilmagan moliyaviy majburiyatlar bo'yicha budjetdan mablag' oluvchilardan to'lov muddati o'tgan qarzlarni summasini budjetdan mablag' oluvchilarning bajarilmagan moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi zarur hujjatlar ilova qilingan yozma murojaatlari asosida,



qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirib olish.

Xulosa qilib aytganda g'aznachilik tizimining yagona modeli mavjud emas, va har qaysi mamlakatda g'aznachilik

boshqarmalari va bo'linmalarining tuzilishi, ularning aniq funksiyalari har xil belgilanadi. Bundan tashqari g'aznachilik tizimining vazifalari vaqt o'tishi bilan, albatta, o'zgaradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizova I.A. "Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" T.: 2010 y.
2. "infoCOM.UZ MChJ" nashriyoti 152 bet.
3. 2.Afanasev M.P. Byudjet i byudjetnaya sistema (izd:2), Yurayt, 2011g. 782 str.
4. 3.Burxonov U. Davlat xaridi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010 y. 160
5. bet
6. 4.Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvenniy byudjet: Uchebnik. T. "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y. 454 str.
7. 5.Vaxobov A. V., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008 y. 287 bet
8. 6.Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma / T.: «infoCOM.UZ». 2009 y. 192 bet.
9. 7.Malikov T.S., Haydarov N.X. Budjet daromadlari va xarajatlari. -
10. Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y. - 245 bet
11. 8.Malikov T.S., Haydarov N.X. Davlat budjeti.- Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007y. - 84 bet
12. 9.Neshitoy A.S. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii (izd:10), Dashkov i K. 2011 g. 336 str.
13. 10.Nurmuxamedova B., Kabirova N. "Moliya", O'quv qo'llanma. T:, Iqtisod-moliya, 2012 y. 207 bet
14. 11.Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010y. 500 bet
15. 12.Srojiddinova Z. Budjetlararo munosabatlar. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010 y. 156 bet.
16. 13.Seleznev A.Z. Budjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Magistr. 2011g. 383 str.